
№2 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR


ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№2 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

YOSHLAR HUQUQIY ONGINI SHAKLLANTIRISH – HUQUQIY NIGILIZMGA QARSHI KURASHNING USTUVOR OMILI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi professori, f.f.d. (DSc)
b.s.turdiev@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlar orasida huquqiy nigilizmning oldini olishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim sharti sifatida asoslab berilgan. Muammo sakkizta ustuvor yo‘nalish, jumladan, oilada huquqiy tarbiya, mahalla institutining roli, ta’lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish, davlat xizmatchilarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini qamrab olish, huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullarini joriy etish, ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish hamda yuridik ta’limni takomillashtirish doirasida yoritilgan. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ma’lumotlar asosida huquqiy nigilizmni bosqichma-bosqich bartaraf etishning asosiy yo‘llari va mexanizmlari umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy nigilizm, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, yoshlar, huquqiy tarbiya, huquqiy savodxonlik, demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati.

Аннотация. В данной статье проведён научно-теоретический анализ приоритетных направлений профилактики правового нигилизма среди молодёжи Республики Узбекистан. Повышение уровня правовой культуры рассматривается как необходимое условие построения демократического правового государства и гражданского общества. Проблема исследуется в рамках восьми приоритетных направлений, включая правовое воспитание в семье, роль института махалли, повышение правовой грамотности в образовательных учреждениях, развитие правовой культуры государственных служащих, охват всех слоёв населения, внедрение инновационных методов правового просвещения, использование возможностей средств массовой информации, а также совершенствование юридического образования. На основе нормативно-правовых актов и статистических данных обобщены основные пути и механизмы поэтапного преодоления правового нигилизма.

Ключевые слова: правовой нигилизм, правовая культура, правосознание, молодёжь, правовое воспитание, правовая грамотность, демократическое правовое государство, гражданское общество.

Abstract. This article presents a scientific and theoretical analysis of the priority directions for preventing legal nihilism among young people in the Republic of Uzbekistan. The enhancement of legal culture is substantiated as an essential prerequisite for building a democratic law-governed state and a strong civil society. The issue is examined through eight priority directions, including legal upbringing within the family, the role of the mahalla institution, the promotion of legal literacy in educational institutions, the development of legal culture among public officials, the inclusion of all segments of the population, the introduction of innovative methods of legal awareness-raising, the effective use of mass media, and the improvement of legal education. Drawing upon normative legal acts and statistical data, the study summarizes the principal approaches and mechanisms for the gradual elimination of legal nihilism.

Keywords: legal nihilism, legal culture, legal consciousness, youth, legal upbringing, legal literacy, democratic law-governed state, civil society.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar orasida huquqiy nigilizm muammosi ijtimoiy-huquqiy taraqqiyotning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Demokratiya va ijtimoiy adolat tamoyillari Konstitutsiyada mustahkamlangan bo‘lib, ushbu tamoyillarning amaliyotga tatbiq etilishi ko‘p jihatdan fuqarolarning, xususan, yoshlarning huquqiy ongi darajasiga bog‘liq. Shu bois yoshlar orasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni kafolatli ta’minlash shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning sifatli rivojlanishi uchun zaruriy shart sifatida maydonga chiqmoqda.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Huquqiy nigilizm va huquqiy madaniyat muammolari N.I. Matuzov, V.A. Tumanov, A. Saidov, U. Tadjixanov, X. Odilqoriyev, N. Xasanov, A. Xolov va B. Sharapovlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Biroq yoshlar huquqiy ongini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari yaxlit tizim sifatida yetarli darajada tahlil etilmagan.

Tadqiqotda ilmiy bilishning umumiy va xususiy usullaridan foydalanildi. Xususan, dialektik metod huquqiy nigilizmni shaxs, jamiyat va davlat munosabatlari tizimida o‘rganishda, formal-yuridik metod normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilishda, tizimli-strukturaviy yondashuv esa sakkizta ustuvor yo‘nalishni yaxlit

tasniflashda metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, statistik tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullari yordamida ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyatning huquqiy madaniyati shaxs erkinligi va xavfsizligi, inson huquqlarini ta’minlash, uning huquqiy himoya qilinishi hamda ijtimoiy faolligini kafolatlash uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Aytib o‘tish joizki, aniq vazifalar va maqsadlarni belgilab olmasdan turib, jamiyatning huquqiy rivojlanishini tasavvur etib bo‘lmaydi. Huquqiy davlatni shakllantirish vazifasini yuksak huquqiy madaniyatsiz amalga oshirish esa nihoyatda qiyin [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonida aholiga mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish - demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini keng targ‘ib qilish kabi vazifalar huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan [2].

O‘zbekistonda yoshlar orasida huquqiy nigilizmning oldini olishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish. Oila bu borada birlamchi va eng muhim ijtimoiy institut sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Oilada sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni vujudga keltirish va uni milliy g‘oya ruhida mustahkamlash davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. Zero, ijtimoiy hayotda yuz beradigan o‘zgarishlar, undagi yutuq va kamchiliklar, salbiy oqibatlar, murakkabliklar va ziddiyatlar, avvalo, oilada o‘z aksini topadi. Sh. Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur” [3]. Agar oiladagi muhit sog‘lom bo‘lsa, yosh avlod qalbi va ruhiga milliy istiqlol g‘oyalarini hamda qonun ustuvorligini singdirish ham oson kechadi.

Huquqiy madaniyatga erishish dastlab oiladagi huquq va majburiyatlarni anglashdan boshlanadi. Ota-ona va farzand o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan burch va

mas’uliyatlarini to‘liq anglab yetishlari lozim. Buning uchun, avvalo, ota-ona mas’uldir. Qolaversa, farzandlarning xulqi ota-onalarning va barcha yoshi ulug‘larning bir qator xatti-harakatlari yig‘indisidan iboratdir. Oiladagi huquqiy tarbiya ishlarini takomillashtirish uchun jamiyat ota-onaga nazariy va amaliy yordam bermog‘i lozim. Bunday yordam unutilsa yoki kechiktirilsa, bola huquqiy va ma’naviy tarbiyaga oid zarur ko‘nikmalardan ortda qolishi mumkin [4].

Ikkinchidan, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda mahalla institutining rolini kuchaytirish. Mahallalarda yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlari yuzasidan keng ko‘lamli tushuntirish ishlarini olib borish, suhbat va ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tkazish yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga katta yordam beradi. Bu tadbirlar yoshlar uchun zerikarli bo‘lib qolmasligi va ularga malakali axborot yetkazilishi maqsadida mahalla yig‘ilishlariga huquqshunos olimlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, sud, prokuratura, soliq, ichki ishlar organlari, notariat va advokatura xodimlarini taklif etib turish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, ta’lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida huquqiy bilimlarni tizimli o‘qitish, yoshlarda qonunga hurmat va huquqiy mas’uliyat hissini shakllantirish bu yo‘nalishning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, Sh. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Biz jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uzluksiz davom ettirishimiz zarur. Huquqiy tarbiyani maktabgacha ta’lim tizimidan boshlashimiz, bu boradagi ilk ko‘nikmalar ona allasi kabi farzandlarimiz qalbidan umrbod joy olishi darkor. Konstitutsiyamiz har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularning huquq va erkinliklarini to‘liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmog‘i lozim” [5].

To‘rtinchidan, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish. Demokratik huquqiy davlat barpo etishning zarur sharti fuqarolar, mansabdor shaxslar, ijtimoiy guruhlar va butun jamiyatning huquqiy madaniyati yuqori darajada bo‘lishini har tomonlama ta’minlashdan iboratdir. Huquqiy madaniyat amaldagi qonun hujjatlarida doimo inson omilini hisobga olishni, qonunchilik jarayonini demokratlashtirishni, qonuniylikka qat’iy rioya etishni, shaxsni huquqiy himoya qilishni hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini amalga oshirishning yuridik kafolatlari tizimini mustahkamlashni alohida taqozo etadi. Bu vazifalarni hal qilmay turib, demokratik huquqiy davlat to‘g‘risida gapirish mumkin emas [6].

Beshinchidan, aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini yuksaltirish.

XULOSA

Yuqorida bayon etilgan ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqib, huquqiy nigilizmni bartaraf etishning asosiy yo‘l va usullarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- fuqarolarning umumiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularning huquqiy hamda axloqiy ongini shakllantirish;
- qonunchilikni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish;
- huquqbuzarliklarning, xususan, jinoiy holatlarning oldini olish uchun profilaktika choralarini kuchaytirish;
- qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlash, davlat intizomini yanada rivojlantirish;
- shaxs huquqlarini hurmat qilish va ularni to‘liq himoya qilishni ta’minlash, aholi orasida ommaviy-ma’rifiy ishlar va huquqiy tarbiyani izchil yuritish;
- yuridik kadrlarni yuqori malaka darajasida tayyorlash va ularning kasbiy ruhini shakllantirish;
- huquqiy islohotlarni tezkor va samarali amalga oshirish hamda boshqa zaruriy choralarni ko‘rish [9].

Natijada, nigilizmga qarshi kurashning barcha shakl va vositalari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va axloqiy sohalaridagi muammolarni bosqichma-bosqich hal etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birga, ushbu jarayonda shaxsning faol pozitsiyasi va salbiy ta’sirlarga qarshi tura olishi ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu ustuvor yo‘nalishlarning uzluksiz va izchil amalga oshirilishi Yangi O‘zbekistonda huquqiy madaniyat va ijtimoiy faollikning yuksalishiga, yoshlar ongida huquqiy tushunchalarning mustahkam shakllanishiga, huquqiy targ‘ibotning zamonaviy usullar orqali keng ommalashishiga hamda fuqarolar va mansabdor shaxslarda qonunga nisbatan barqaror hurmat hissining qaror topishiga zamin yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizda yoshlar orasidagi huquqiy nigilizmni bosqichma-bosqich bartaraf etish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning mustahkam poydevorini barpo etish yo‘lida muhim amaliy qadam bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xasanov N. Huquqiy madaniyatni shakllantirish // Jamiyat va boshqaruv. - 2007. №1. - B.68-69.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni // https://lex.uz/docs/-4149765
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. - Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019. - B.195.

4. Xolov A., Ergashev B. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish - buyuk kelajagimiz poydevoridir // Huquqshunoslik istiqbollari: ilmiy maqolalar to‘plami. - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. - B.184-188.

5. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi - huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir // “Xalq so‘zi” gazetasi. - 2019-yil 8-dekabr. - №254 (7484).

6. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. I tom. - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998. - B.137.

7. Sharapov B. Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish // Huquq va burch. - 2023. - №12. - B.46-49.

8. Amirov Z. Huquqiy madaniyat yuksalishi va qonun ijodkorligi sifatining o‘zaro aloqadorligi // Fuqarolik jamiyati. - 2015. - №4(44). - B.17-20.

9. Turdiyev B. Huquqiy nigilizm fenomeni va uni bartaraf etish yo‘llari // Legal Sciences.uz: Current Issues in Legal Studies. - 2026. - T.2, №1. - B.5-8.

TA’LIM JARAYONIDA AKADEMIK STRESS VA UNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI

Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Buxoro davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Psixologiya fanlari bo‘yicha PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida yuzaga keladigan akademik stressning psixologik mohiyati, uning kelib chiqish omillari hamda talabalarning o‘quv faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Akademik stressning emotsional, kognitiv va xulq-atvor komponentlari ilmiy asosda yoritilib, uning o‘quv samaradorligiga salbiy ta’siri ochib berilgan.

Shuningdek, maqolada akademik stressni kamaytirishga qaratilgan samarali strategiyalar, jumladan, kognitiv qayta baholash, emotsional o‘zini boshqarish, vaqtni samarali rejalashtirish hamda motivatsion qo‘llab-quvvatlash usullari tahlil etilgan. Tadqiqotda zamonaviy psixologik yondashuvlar asosida talabalar psixologik farovonligini ta’minlash va ularning o‘quv faoliyatini optimallashtirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Olingan natijalar ta’lim jarayonida akademik stressni boshqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: akademik stress, ta’lim jarayoni, psixologik farovonlik, motivatsiya, coping strategiyalar, refleksiya, o‘zini boshqarish, vaqtni boshqarish.

Аннотация. В данной статье проанализированы психологическая сущность академического стресса, возникающего в образовательном процессе, его причины и влияние на учебную деятельность студентов. Научно обоснованы эмоциональные, когнитивные и поведенческие компоненты академического стресса, а также раскрыто его негативное воздействие на эффективность обучения.

Кроме того, в статье рассмотрены эффективные стратегии снижения академического стресса, включая когнитивную переоценку, эмоциональную саморегуляцию, рациональное управление временем и мотивационную поддержку. На основе современных психологических подходов предложены пути обеспечения психологического благополучия студентов и оптимизации их учебной деятельности. Полученные результаты имеют важное значение для разработки практических рекомендаций по управлению академическим стрессом в образовательной среде.

Ключевые слова: академический стресс, образовательный процесс, психологическое благополучие, мотивация, копинг-стратегии, рефлексия, саморегуляция, управление временем.

Abstract. This article analyzes the psychological nature of academic stress arising in the educational process, its causes, and its impact on students' learning activities. The emotional, cognitive, and behavioral components of academic stress are scientifically substantiated, and its negative influence on academic performance is revealed. In addition, the article examines effective strategies for reducing academic stress, including cognitive reappraisal, emotional self-regulation, effective time management, and motivational support.

Based on modern psychological approaches, ways to ensure students' psychological well-being and optimize their learning activities are proposed. The findings are significant for developing practical recommendations for managing academic stress in educational settings.

Keywords: academic stress, educational process, psychological well-being, motivation, coping strategies, reflection, self-regulation, time management.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, xususan, raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, o'quv yuklamasining ortishi hamda ta'lim sifatiga qo'yilayotgan yuqori talablar akademik stress muammosining dolzarbligini keskin oshirmoqda. Bugungi kunda talabalar va o'quvchilar nafaqat bilim olish, balki qisqa muddat ichida yuqori natijalarga erishish, raqobatbardosh bo'lish, doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borish kabi murakkab talablar ostida faoliyat olib bormoqda. Bu jarayon esa ularning psixologik holatiga sezilarli bosim yuklab, o'quv motivatsiyasining pasayishi, emotsional zo'riqish, tashvish va hatto turli psixologik buzilishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois akademik stressni ilmiy asosda o'rganish va uni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish zamonaviy pedagogika va psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, raqamli ta'lim muhitining kengayishi - masofaviy ta'lim, onlayn platformalar, doimiy nazorat va baholash tizimlarining joriy etilishi o'quvchilarda "doimiy bandlik" hissini shakllantirib, psixologik zo'riqishni yanada kuchaytirmoqda. Raqamli vositalar orqali o'quv jarayonining uzluksizligi ta'minlanayotgan bo'lsa-da, bu holat dam olish va tiklanish jarayonlarining qisqarishiga, natijada esa surunkali charchoq va stressning ortishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, akademik stress muammosi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-psixologik ahamiyatga ham ega bo'lib bormoqda.

Bundan tashqari, global ta'lim makonida raqobatning kuchayishi, reyting va baholash tizimlarining qat'iylashuvi, ota-onalar va jamiyat tomonidan qo'yilayotgan yuqori kutishlar ham o'quvchilarning psixologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ko'plab talabalar o'z imkoniyatlarini haddan tashqari yuqori

baholash yoki, aksincha, o‘ziga ishonchsizlik holatiga tushib qolish orqali stressni boshdan kechirmoqda. Bu esa ularning nafaqat o‘quv faoliyatiga, balki shaxsiy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Mavzuning dolzarbligi yana shundaki, akademik stressning yuqori darajasi o‘quvchilarda prokrastinatsiya, o‘qishga nisbatan befarqlik, emotsional charchoq va ijtimoiy moslashuv muammolarining kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, yoshlar orasida psixologik salomatlik bilan bog‘liq muammolarning ortib borayotganligi ushbu masalani chuqur ilmiy tadqiq etishni talab etmoqda. Shu sababli akademik stressni aniqlash, uning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish hamda uni kamaytirishga qaratilgan samarali psixologik-pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida akademik stress muammosini kompleks o‘rganish, uni kamaytirishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanlari oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Akademik stress - bu o‘quv faoliyati bilan bog‘liq psixologik zo‘riqish bo‘lib, u shaxsning emotsional, kognitiv va xulq-atvor sohalariga ta’sir ko‘rsatadi. Stress nazariyasining asoschisi Gans Selye stressni organizmning tashqi va ichki omillarga nisbatan umumiy moslashuv reaksiyasi sifatida talqin qiladi [13, 45-bet]. Uning fikricha, stress uch bosqichda - xavotir, qarshilik va charchash bosqichlarida kechadi. Keyinchalik Richard Lazarus stressni shaxs va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayoni sifatida izohlab, unda kognitiv baholashning hal qiluvchi rol o‘ynashini asoslab berdi [8, 120-bet]. Ushbu yondashuv akademik stressni tushunishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Akademik stressning mohiyatini chuqurroq anglashda Albert Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra, shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, ya’ni self-efficacy darajasi uning stressga bardoshliligini belgilaydi [1, 78-bet]. O‘z imkoniyatlariga ishongan talabalar o‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni samaraliroq yengib o‘tadi. Shu bilan birga, Edvard Detsi va Richard Rayan tomonidan ishlab chiqilgan o‘zini-o‘zi belgilash nazariyasiga ko‘ra, ichki motivatsiyaga ega shaxslar tashqi bosimlarga kamroq beriladi va stressni samaraliroq boshqaradi [4, 156-bet].

O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham akademik stress muammosiga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Shoumarov ta’lim jarayonidagi psixologik bosimlar o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [14, 112-bet]. G‘oziyev esa emotsional barqarorlik o‘quv faoliyati samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini qayd etadi [5, 203-bet].

Qodirov o‘z tadqiqotlarida motivatsiya va psixologik holat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi [12, 98-bet]. Shuningdek, Baratov stressning uzoq davom etishi shaxsning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslaydi [2, 67-bet].

Akademik stressning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi omillar ko‘p qirrali bo‘lib, ular orasida ortiqcha o‘quv yuklamasi, imtihonlar va baholash tizimi bosimi, vaqtni noto‘g‘ri taqsimlash, raqobat muhiti hamda ijtimoiy kutishlar muhim o‘rin tutadi. Charlz Spilberger tadqiqotlariga ko‘ra, tashvish darajasining yuqoriligi o‘quv faoliyati samaradorligining pasayishiga olib keladi [15, 54-bet]. Akademik stress emotsional (tashvish, depressiv holatlar), kognitiv (diqqatning pasayishi, salbiy fikrlash) hamda xulq-atvoriy (prokrastinatsiya, o‘qishdan qochish) komponentlar orqali namoyon bo‘ladi.

Akademik stressni kamaytirish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. Aron Bek tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv terapiya usullari salbiy fikrlarni qayta baholash orqali stressni kamaytirishga xizmat qiladi [3, 32-bet]. Jon Kabat-Zinn tomonidan asoslangan mindfulness texnikalari esa shaxsning emotsional holatini barqarorlashtirish va stressga chidamliligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi [6, 210-bet].

Bundan tashqari, vaqtni samarali boshqarish, o‘quv faoliyatini rejalashtirish va ustuvorliklarni belgilash akademik yuklamani optimallashtirish imkonini beradi. Motivatsion qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa ichki motivatsiyani shakllantirish, talabalarning stressga chidamliligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Nizomiddin Muslimov zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning psixologik holatini barqarorlashtirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [10, 144-bet].

Shuningdek, Abraham Maslou tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga ko‘ra, shaxsning asosiy ehtiyojlari qondirilgandagina u yuqori darajadagi faoliyatga erisha oladi [9, 67-bet]. Bu esa akademik stressni kamaytirishda psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Pol Pintrich esa motivatsiya va o‘quv faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab, ichki motivatsiyaning ustunligi stressni kamaytiruvchi omil ekanligini ta’kidlaydi [11, 89-bet].

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, akademik stress zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, uni to‘liq bartaraf etish emas, balki samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik stressni kamaytirishda kognitiv, emotsional va motivatsion strategiyalarni uyg‘un holda qo‘llash eng samarali yondashuv hisoblanadi. Ayniqsa, talabalarda o‘ziga ishonchni rivojlantirish, ichki

motivatsiyani kuchaytirish hamda qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhit yaratish muhim omillar sirasiga kiradi.

XULOSA

Akademik stressni ilmiy asosda o‘rganish va uni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish ta’lim sifatini oshirish, talabalar psixologik farovonligini ta’minlash hamda ularning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu muammoni empirik tadqiqotlar asosida chuqurroq o‘rganish va innovatsion psixologik-pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control / A. Bandura. - New York : Freeman, 1997. - 78 p.
2. Baratov Sh.R. Shaxs psixologiyasi / Sh.R. Baratov. - Toshkent, 2011. - 67 b.
3. Beck A.T. Cognitive Therapy and Emotional Disorders / A.T. Beck. – New York, 1976. - 32 p.
4. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior / E.L. Deci, R.M. Ryan. - New York : Plenum, 1985. - 156 p.
5. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya / E.G‘. G‘oziyev. - Toshkent, 2010. - 203 b.
6. Kabat-Zinn J. Full Catastrophe Living / J. Kabat-Zinn. - New York, 1990. - 210 p.
7. Karasar N. Scientific Research Methods / N. Karasar. - Ankara, 2005. - 134 p.
8. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping / R.S. Lazarus, S. Folkman. - New York : Springer, 1984. - 120 p.
9. Maslow A. Motivation and Personality / A. Maslow. - New York, 1954. - 67 p.
10. Muslimov N.A. Pedagogik texnologiyalar / N.A. Muslimov. - Toshkent, 2015. - 144 b.
11. Pintrich P.R. Motivation in Education / P.R. Pintrich. - New Jersey, 2003. - 89 p.
12. Qodirov B.R. Ta’lim psixologiyasi / B.R. Qodirov. - Toshkent, 2005. - 98 b.
13. Selye H. The Stress of Life / H. Selye. - New York : McGraw-Hill, 1956. - 45 p.
14. Shoumarov G‘.B. Psixologiya asoslari / G‘.B. Shoumarov. - Toshkent, 2002. - 112 b.
15. Spielberger C.D. Anxiety and Behavior / C.D. Spielberger. - New York, 1972. - 54 p.

ZAMONAVIY YOSHLARDA O‘ZIGA BAHONI ADEKVATLASHTIRISH ORQALI STRESSGA BARQARORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna
O‘zMPU “Amaliy psixologiya” kafedrasi professori,

Ismoilova Moxinur Kamilovna
O‘zMPU, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy yoshlarda stressga barqarorlikni oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lgan o‘z-o‘zini baholashni adekvatlashtirishning psixologik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘z-o‘zini baholash va stressga barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoritilib, adekvat o‘zini baholashning shaxsning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va stressli vaziyatlarni yengib o‘tish qobiliyatiga ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, stressga barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: stressga barqarorlik, determinant, o‘z-o‘zini baholash, adekvat baholash, trening, kognitiv, affektiv, konativ, fiziologik, aloqadorlik.

Аннотация. В данной статье анализируются психологические возможности повышения стрессоустойчивости современной молодежи посредством формирования адекватной самооценки как одного из важнейших факторов устойчивости к стрессу. Рассматривается взаимосвязь между самооценкой и стрессоустойчивостью, раскрывается влияние адекватной самооценки на эмоциональное состояние личности, её социальную адаптацию и способность преодолевать стрессовые ситуации. Кроме того, представлены психологические тренинги и практические рекомендации, направленные на развитие стрессоустойчивости.

Ключевые слова: стрессоустойчивость, детерминанта, самооценка, адекватная самооценка, тренинг, когнитивный, аффективный, конативный, физиологический, взаимосвязь.

Abstract. This article analyzes the psychological opportunities for enhancing stress resilience among modern youth through the development of adequate self-esteem, which is considered one of the key determinants of stress resistance. The study examines the relationship between self-esteem and resilience to stress and reveals the impact of adequate self-assessment on emotional well-being, social adaptation, and the ability to cope with stressful situations. In addition, psychological training methods and practical recommendations aimed at

strengthening stress resilience are presented.

Keywords: stress resilience, determinant, self-esteem, adequate self-assessment, training, cognitive, affective, conative, physiological, relationship.

KIRISH

Yoshlar mamlakatimizning kelajagi va muhim zaxirasi hisoblanishi hech kimga sir emas. Shunga ko‘ra, davlatimiz siyosatida yoshlar tarbiyasi, ularning jismoniy va ruhiy salomatligi masalasiga alohida e’tibor qaratilib kelinadi. Yoshlar orasida mamlakatning intellektual asosini tashkil etuvchi zamonaviy yoshlarga bo‘lgan e’tibor esa undan-da muhim ahamiyatga ega. Yoshlik davri o‘zining boy imkoniyatlarga ega ekanligi bilan birga, o‘ziga xos qiyinchilik va muammolari, boshqacha aytganda, stressogen ta’sirlarga egaligi bilan ham barcha yo‘nalishdagi, ayniqsa, pedagogika va psixologiya yo‘nalishidagi tadqiqotlarning e’tibor markazidadir.

Keyingi yillarda psixologiya sohasida zamonaviy yoshlar va ularning ruhiy salomatligiga aloqador muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar ko‘lami kengaydi. Ayni shunday dolzarb mavzulardan biri talabalarning stress holatiga tushishi, stressni keltirib chiqaruvchi omillar va stressga barqarorligi masalalariga aloqadordir.

Ma’lumki, shaxsda stressga barqarorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda turli xil ijtimoiylashuv institutlarining roli katta bo‘lib, ulardan biri - oliy ta’lim tizimidir. Bugun ta’lim dargohlarida tahsil olish jarayonida zamonaviy yoshlar faqat umumkasbiy va mutaxassislik fanlaridan ta’lim olibgina qolmasdan, balki o‘z shaxsini rivojlantirishga, psixologik savodxonligini oshirishga, ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirishga imkon beruvchi omillarga ham duch keladilar. Bu omillardan to‘g‘ri foydalana olish ularning stressga barqarorligini oshirish va shaxs sifatida kamol topishini belgilab beradi.

Shuning uchun psixologiya zamonaviy yoshlarni har tomonlama stressga barqaror qilib tarbiyalash, ularning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish hamda psixologik salomatligini mustahkamlashda asosiy yo‘nalishlardan birini tashkil etishi lozim.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Stressli vaziyatlarda stressga nisbatan barqarorlik shaxsning ijtimoiy hayotdagi eng muhim ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy yoshlar shaxsida ham stress holatida o‘zini va o‘z xulq-atvorini nazorat qilish uning xarakteriga xos muhim jihat bo‘lib, aytish mumkinki, har qanday qiyin vaziyatlarda o‘zini va xulq-atvorini nazorat qila oladigan zamonaviy yoshlar o‘z hissiyotlarini ham boshqara oladi.

L.M. Abolin va B.X. Vardanyanning fikrlariga ko‘ra, stressga barqarorlikka ta’sir etuvchi omillar qatoriga stressning inson ongida idrok etilishiga ta’sir qiluvchi ichki psixologik mexanizmlarni ham kiritish lozim.

Shuni alohida e’tiborga olish kerakki, stressga beriluvchanlik aslida bir qancha omillarga bog‘liq bo‘lib, bular stressorning kuchi va davomiyligi, stress omillariga nisbatan shaxsning munosabati kabilardir. Shular bilan bir qatorda, mavzuga oid adabiyotlar sharhi asosida aytish mumkinki, zamonaviy yoshlarda stress yuzaga kelishini asoslash uchun faqatgina tashqi omillar sababi bilan cheklanishning o‘zi yetarli emas. Bu borada zamonaviy yoshlarning ichki ruhiy holati, uning shaxs xususiyatlari ham muhim rol o‘ynashiga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Nazariy tahlillarga ko‘ra, bunday xususiyatlardan biri shaxsning o‘z-o‘ziga beradigan bahosidir. Shaxsning o‘ziga bahosi uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi va bunday rivojlanish ma’lum bir faoliyat hamda shaxslararo munosabatlar jarayonida sodir bo‘ladi.

O‘z-o‘zini baholash tarkibiga ko‘ra ikki komponentdan iborat bo‘lib, bular emotsional va kognitiv komponentlardir. Bu komponentlardan dastlabkisi shaxsning o‘zi haqidagi bilimlaridan iborat bo‘lsa, ikkinchisi esa shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Buni aniqroq va zamonaviy yoshlar misolida aytadigan bo‘lsak, kognitiv komponent zamonaviy yoshlarning o‘zi, imkoniyatlari, qobiliyatlari va hokazolar haqidagi tasavvurlarining umumlashgan holda anglanganligidir. Emotsional komponent esa zamonaviy yoshlarning o‘ziga bo‘lgan munosabati va bahosidan iborat bo‘lib, bu holatlar ularning bajarayotgan faoliyatiga va jamiyatda namoyon qiladigan xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, o‘z-o‘zini baholash ikki xil: boshqaruvchi va himoyalovchi vazifalarni bajaradi. O‘z-o‘zini baholashning boshqaruvchilik vazifasi shaxs tanlagan muammolarni hal qilishga yordam bersa, himoyalovchi vazifasi shaxsning barqarorligi va mustaqilligini ta’minlaydi.

O‘z-o‘zini baholashning mazkur vazifalari shaxsning faoliyatiga, xulq-atvoriga va shaxs sifatida rivojlanishiga, shuningdek, uning boshqa odamlar bilan munosabatlariga ham ta’sir qiladi. Bundan tashqari, shaxsning o‘z muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini idrok etishi va keyingi maqsadlarini belgilashiga ham ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni shaxsning ma’lum bir muvaffaqiyatga erishish uchun intilishlari darajasini belgilab beradi.

O‘z o‘rnida qayd etib o‘tish kerakki, shaxsning o‘z-o‘zini baholashi uch xil bo‘ladi.

1. O‘z-o‘zini yuqori baholash - bunday kishilar o‘z shaxsi va qadr-qimmati haqida ideal tasavvurlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularning aksariyati o‘zini atrofidagilar uchun, ayniqsa, yaqinlari uchun “tuhfa” deb biladi va ularning nazarida

hamma ularni qadrlashi lozim deb hisoblaydi. Bunday shaxslar o‘z xatolari, bilimsizligi, xulq-atvoridagi kamchiliklarini, ayniqsa, yalqovligini tan olmaydi. Buning ustiga ular o‘zini boshqalarga nisbatan anchagina aqlli deb hisoblaydi va qattiqqo‘llik, agressivlik, arazlash, murosani bilmaslik kabi salbiy holatlarni o‘z xulqida tez-tez namoyon qilib turadi.

2. O‘z-o‘zini past (noadekvat) baholash - shaxsning o‘ziga nisbatan noadekvat, negativ munosabati bo‘lib, bunday shaxs o‘zini haqiqatan qanday bo‘lsa, shundayligicha baholay olmaydi. Bunday shaxslarda ko‘zga tashlanadigan eng muhim jihatlar sifatida quyidagilarni sanash mumkin: o‘ziga ishonmaslik, uyatchanlik, tortinchoqlik, o‘z iqtidor va qobiliyatlaridan foydalana olmaslik, o‘zini ko‘rsata olmaslik, o‘z oldiga imkoniyati nuqtai nazaridan erisha olishi mumkin bo‘lganiga nisbatan arzimas maqsadlar qo‘yish, o‘zi bilan sodir bo‘lgan omadsizliklarni bo‘rttirib qabul qilish, atrofdagilarning qo‘llab-quvvatlashiga o‘ta muhtojlik, o‘ziga nisbatan o‘ta tanqidiy munosabatda bo‘lish va shu kabilar.

3. O‘z-o‘zini adekvat (mos, to‘g‘ri) baholash - bunday baholash shaxsda talabgorlik va imkoniyatlarning o‘zaro mosligini ta’minlaydi. Ya’ni shaxs o‘z oldiga qobiliyat va imkoniyatlariga mos maqsadlarni qo‘yadi va ehtiyojlari ham shunga mos bo‘ladi. Bunday shaxslar o‘z muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan hushyorlik va aql-idrok bilan munosabatda bo‘ladi. Bunday shaxslar odatda faol, serg‘ayrat, shijoatli va optimistik pozitsiyada bo‘ladi. Bu esa shaxsda yaxshi emotsional holatni ta’minlaydi. Yaxshi emotsional holat esa shaxsning kundalik hayotida uchraydigan turli muammo va to‘siqlarni muvaffaqiyatli yengib o‘tishiga imkon beradi. Muammo va to‘siqlarni yengib o‘tish esa anglash, o‘z emotsiyalarini va vaziyatni boshqarishni ta’minlaydi. Aynan mana shu sifat, ya’ni o‘zini adekvat baholash natijasida o‘z emotsiyalari va vaziyatni boshqara olish ko‘nikmasi zamonaviy yoshlarga stressogen omillarni yengib o‘tishga hamda o‘qish faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishga yordam berishini hisobga olgan holda tadqiqotimizning maqsad va vazifalarini belgilaganmiz.

Biz tadqiqotimizda sinaluvchi zamonaviy yoshlarda stressga barqarorlikni oshirish maqsadida ularning o‘zini baholashini adekvatlashtirish orqali ma’lum bir ijobiy natijani qo‘lga kiritishni vazifalarimiz qatoriga kiritdik va buning uchun maxsus trening dasturi tarkibiga sinaluvchilarning o‘ziga bahosini adekvatlashtirishga xizmat qiluvchi mashqlar majmuasini kiritdik.

Zamonaviy yoshlarda stressga barqarorlikni oshirishga qaratilgan psixologik trening dasturining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda to‘rtta asosiy komponent qamrab olingan bo‘lib, dastlab zamonaviy yoshlarning mavzu yuzasidan, ya’ni shaxsning o‘zini baholashi, uning turlari va stressga barqarorlik haqidagi bilimlariga oydinlik kiritiladi. Ikkinchi navbatda, zamonaviy yoshlarda

stressogen vaziyatga nisbatan salbiy munosabatni bartaraf etish yo‘llari o‘rgatiladi. Uchinchi galda, zamonaviy yoshlarga stressogen vaziyatga tushganda bildiriladigan ijobiy reaksiya turlari o‘rgatiladi. Nihoyat, to‘rtinchi holatda zamonaviy yoshlarda stress vaziyatida yuzaga keladigan fiziologik reaksiyalarni meditatsion yo‘l bilan bartaraf etish va tinchlanish usullari o‘rgatiladi. Trening dasturining to‘rtta komponenti quyidagi rasmda o‘z ifodasini topgan.

1-jadval. Eksperiment guruhida o‘tkazilgan trening dasturining komponentlari

Kognitiv	Affektiv	Konativ	Fiziologik
Stress, stressogen omillar, o‘z-o‘ziga baho, frustratsiya va frustra-sion tolerantlik, koping-strategiya, stressga barqarorlik tushunchalari haqida ma’lumotlar beriladi va bu tushunchalarga nisbatan ishtirok-chilarda **bilimlar oshiriladi**.	Shaxsning o‘z-o‘ziga, stressogen voqega va frustratsion to‘siqqa, koping-strategiyaning “Muammoni hal etish”, “Ijtimoiy qo‘llab quvvatlashni izlash” strategiya-lariga nisbatan ijobiy **munosabat shakllantiriladi**	Hayot davomida yoki o‘quv faoliyatida yuzaga kelishi mum-kin bo‘lgan stres-sogen voqeaning vaziyatli modeli yaratiladi va bun-day sharoitlarda stressga barqaror-likni namoyon qi-lishga yo‘nalgan **xulq-atvorga o‘rgatiladi**.	Stressga tush-ganda organizm-ni fiziologik jihatdan tinch-lantirishga yo‘-naltirilgan me-ditatsion va autogen mashqlarni baja-rishga o‘rgatish orqali **Fiziologik jihatdan tinchlanishga o‘rgatiladi**

Taklif etilgan trening dasturining davomiyligi 20 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, haftasiga 2 kun, 2 soatdan o‘tkazilganda jami 10 kunda yakuniga yetadi. Trening dasturida belgilangan va rejalashtirilgan har bir vazifani (o‘ziga bo‘lgan munosabat va bahoning ijobiy tomonga o‘zgarishi, frustratsion tolerantlikning ortishi bilan birgalikda stressli vaziyatlarni yengib o‘tishda koping-strategiyaning faol usullarini egallash va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish, oxir-oqibat zamonaviy yoshlarda stressga barqarorlikni oshirish) amalga oshirish jarayonida sinaluvchilarda stressga barqarorlik ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish ko‘zda tutilgan.

Eksperiment guruhida aniqlovchi va nazorat tajriba natijalari o‘rtasidagi statistik tafovut (St’yudent mezoni bo‘yicha).

Stressga barqarorlik Psixologik determinantlar	Aniq-lovchi	Nazo-rat	Tafovutning statistik aha-miyati (t-mezoni bo‘yicha)
Xulosa qilib aytganda, ROFES apparati sportchilarning psixologik tayyorgarligini baholashda stress holatini aniqlash, emotsional barqarorlikni tahlil qilish, individual tayyorgarlik samaradorligini oshirish hamda murabbiy va psixologga real vaqt rejimida aniq ma’lumotlarni taqdim etish imkonini beradi. Shu orqali zamonaviy texnologik vositalar yordamida sportchilarning musobaqalarga psixologik tayyorligi kompleks va aniq tarzda monitoring qilinadi hamda tayyorgarlik samaradorligi oshiriladi.

Poligraf apparati insonning fiziologik reaksiyalarini real vaqt rejimida o‘lchash va tahlil qilish imkonini beruvchi qurilma hisoblanadi. Poligraf yurak urish tezligi, arterial qon bosimi, nafas olish tezligi va ritmi, shuningdek, ter bezlari faoliyati (galvanik teri reaksiyasi) kabi fiziologik parametrlarni qayd etadi va tahlil qiladi.

Poligraf (ko‘pincha “yolg‘on detektor” deb ataladi) - bu insonning fiziologik reaksiyalarini, jumladan yurak urishi, qon bosimi, nafas tezligi va ter bezlarining faoliyatini o‘lchash orqali uning **emotsional va stress holatini** aniqlashga xizmat qiluvchi apparat. https://sudex.uz/?p=3407	

Yurak urishi va qon bosimidagi o‘zgarishlar sportchining stress yoki tashvish darajasini baholash imkonini beradi. Yurak urish tezligi va arterial qon bosimining doimiy yuqori bo‘lishi ortiqcha stress holatini ko‘rsatishi mumkin. Nafas olish tezligi va ritmi esa sportchining musobaqaga tayyorlik darajasi hamda emotsional

barqarorligini baholashga xizmat qiladi. Chuqur va ritmik nafas olish stressni kamaytirishga yordam bersa, tez va nomutanosib nafas olish ortiqcha asabiylashuv belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ter bezlari faoliyati esa nerv tizimining reaksiyalari va psixologik yuklanish darajasini aniqlashda ishonchli indikator hisoblanadi. Ushbu o‘lchovlar sport psixologiga obyektiv va raqamli ma’lumotlarni taqdim etadi hamda sportchining individual psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlashga yordam beradi. Poligraf orqali olingan ma’lumotlar boshqa psixologik testlar natijalari bilan birgalikda tahlil qilinganda sportchining umumiy holatini yanada aniqroq baholash imkonini beradi [5].

Poligrafning ilmiy ahamiyati shundaki, u sportchining fiziologik va psixologik holatini raqamli hamda obyektiv tarzda baholash, stress va emotsional barqarorlikni tahlil qilish, shuningdek, musobaqaga tayyorgarlik jarayonida psixofiziologik moslashuv dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, poligraf sport psixologiyasi va sport fiziologiyasi sohalarida yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim empirik ma’lumotlar manbai sifatida ham qo‘llaniladi. Amaliy jihatdan poligraf tayyorgarlik mashg‘ulotlarini individuallashtirish, musobaqaoldi psixologik treninglarni samarali rejalashtirish hamda sportchining psixofiziologik holatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Natijada ortiqcha stress va charchoq holatlarining oldini olishga erishiladi [7].

Poligraf natijalari mustaqil tibbiy tashxis vositasi hisoblanmaydi. Shu sababli, undan foydalanishda natijalarni boshqa diagnostik metodlar, jumladan, psixologik testlar va sport psixologining kuzatuvlari bilan birgalikda talqin etish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, poligraf apparati sportchilarning musobaqaga tayyorgarligini baholashda stress va emotsional yuklanish darajasini aniqlash, tayyorgarlik jarayonini individual moslashtirish, psixologik trening va mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish hamda sportchining ruhiy barqarorligini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, poligraf sport psixologining faoliyatini obyektivlashtiradi va musobaqalarga tayyorgarlik jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologik vosita sifatida u sportchilarning psixofiziologik holatini baholash hamda murabbiylar tomonidan asoslangan qarorlar qabul qilinishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Psychotest apparati kompyuterlashtirilgan psixologik baholash va diagnostika tizimi bo‘lib, sport psixologiyasida sportchilarning ruhiy holati, stress darajasi, motivatsiyasi, diqqat va konsentratsiya qobiliyati hamda psixofiziologik tayyorgarligini obyektiv va standartlashtirilgan tarzda aniqlash imkonini beradi. Mazkur apparatura avtomatlashtirilgan testlarni taqdim etadi, javoblarni avtomatik ravishda qayd qiladi, natijalarni statistik va normativ ko‘rsatkichlar bilan

taqqoslaydi hamda hisobotlarni tezkor va aniq shakllantiradi. Bu esa sport psixologiga sportchining individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va baholashda qulaylik yaratadi.

Psychotest - bu psixodiagnostika va psixologik baholashni avtomatlashtirishga mo‘ljallangan **kompyuter asosidagi apparat va dasturiy kompleks** bo‘lib, insonning ruhiy, emotsional va kognitiv holatini o‘lchash uchun psixologik sinovlar (testlar)ni taqdim etadi. U oddiy psixologik testlarni elektron shaklda boshqaradi, natijalarni avtomatik qayd etadi va tahlil qiladi, bu esa klassik testlar bilan solishtirganda **aniq va tez natija beradi**. https://neuroimpulse.uz/uz-nc-pshyhotest-expert/	

Sport psixologiyasida Psychotest apparati quyidagi psixologik va kognitiv parametrlarni baholashda muhim vosita hisoblanadi: stressga javob reaksiyalari, diqqat va konsentratsiya darajasi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati, emotsional barqarorlik, motivatsiya darajasi hamda kognitiv funksiyalar. Mazkur parametrlar sportchining ruhiy va psixofiziologik tayyorgarlik holatini baholash imkonini beradi hamda tayyorgarlik jarayonini individual tarzda optimallashtirish uchun asos yaratadi [3, 52-54-betlar].

Ilmiy nuqtayi nazardan, Psychotest apparati sportchining psixologik va kognitiv ko‘rsatkichlarini raqamli hamda standartlashtirilgan usulda o‘lchash imkonini beradi. Shu asosda ushbu apparat sport psixologiyasi va sport fiziologiyasi sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borish, stress va emotsional yuklanish dinamikasini tahlil qilish hamda tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish uchun ishonchli ma’lumotlar manbai sifatida xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa u sportchilarning tayyorgarlik mashg‘ulotlarini individual xususiyatlariga moslashtirish, musobaqaoldi psixologik treninglarni samarali rejalashtirish hamda sportchining psixofiziologik holatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa ortiqcha stress va charchoq holatlarining oldini olish, musobaqa jarayonida diqqat va konsentratsiyani maksimal darajada saqlash hamda sportchining ruhiy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Psychotest natijalari murabbiy kuzatuvlari va boshqa diagnostik metodlar bilan birgalikda qo‘llanilgandagina maksimal samaradorlikka erishiladi.

XULOSA

Zamonaviy Olimpiya sportida sportchilarning yuqori natijalarga erishishi ularning psixologik barqarorligi va psixofiziologik moslashuv darajasiga bevosita bog‘liqdir. ROFES, poligraf va Psychotest kabi zamonaviy texnologik vositalar sportchilarning ruhiy hamda fiziologik holatini obyektiv, raqamli va standartlashtirilgan ko‘rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi. Ushbu apparatlar yordamida individual monitoringni tashkil etish, stress va charchoq holatlarini erta aniqlash hamda tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnologik diagnostika vositalaridan foydalanish sportchilarning psixologik tayyorgarligini yanada chuqurroq tahlil qilish, individual yondashuv asosida psixologik qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish va musobaqaoldi tayyorgarlik samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bois ROFES, poligraf va Psychotest kabi vositalarni sport psixologlari hamda murabbiylar faoliyatiga kompleks tarzda integratsiya qilish sportchilarning musobaqalarga psixologik tayyorligini kuchaytirish, stressga chidamliligini oshirish va xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Малкин, В. Р. Психотехнологии в спорте : учеб. пособие / В. Р. Малкин, Л. Н. Рогалева ; науч. ред. В. Н. Люберцев. - Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2013. - 96 с.

2. Высочина, Н. Л. Психологическое обеспечение подготовки спортсменов в олимпийском спорте : монография / Н. Л. Высочина. - Москва : Спорт, 2021. - 302 с.

3. Кац, А. С. Возможности компьютерной психодиагностики личности в образовательном процессе вузов спортивного профиля: результаты пилотажного исследования / А. С. Кац, Ю. И. Смолина, А. А. Зверев. - Электронный ресурс. - Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnosti-kompyuternoy-psihodiagnostiki-lichnosti-v-obrazovatelnom-protsesse-vuzov-sportivnogo-profilya-rezultaty-pilotazhnogo/viewer (дата обращения: 23.06.2026).

4. Спортчилар учун психологик тайёргарлик ҳақида 5 та факт. - Электронный ресурс. - Режим доступа: https://olamsport.com/oz/news/sportchilar-uchun-psixologik-tayyorgarlik-haqida-5-ta-fakt (дата обращения: 23.06.2026).

5. How Lie Detector Tests Promote Fair Play in Sports. - Электронный ресурс. - Режим доступа: https://www.polytest.org/how-lie-detector-tests-promote-fair-play-in-sports/ (дата обращения: 23.06.2026).

6. РОФЭС Россия. - Электронный ресурс. - Режим доступа: https://vk.com/rofesrussia (дата обращения: 23.06.2026).

7. Наука и спорт: современные тенденции. - Электронный ресурс. - Режим доступа: https://sciencesport.ru/ (дата обращения: 23.06.2026).

IJTIMOIY TARMOQLARDA YOLG‘ON AXBOROTLARGA MOYILLIKNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA NAMOYON BO‘LISH MEXANIZMLARI

Nurmatov A.N
Toshkent amaliy fanlar universetiti, v.b dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan yolg‘on ma’lumotlarning jamiyat ongiga ta’siri, ularning yuzaga kelish sabablari hamda tarqalish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, yolg‘on axborotning shaxsiy qaror qabul qilish jarayoniga, ijtimoiy ishonch darajasiga va insonning psixologik holatiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri yoritilgan. Tadqiqot davomida axborot savodxonligini oshirish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish hamda yolg‘on ma’lumotlarga qarshi samarali kurashishning amaliy yo‘llari va mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yolg‘on ma’lumot, dezinformatsiya, axborot manipulyatsiyasi, tanqidiy tafakkur, axborot savodxonligi, psixologik ta’sir.

Аннотация. В статье анализируется влияние ложной информации, широко распространяемой в социальных сетях, на общественное сознание, а также причины и механизмы её распространения. Особое внимание уделяется негативному воздействию дезинформации на процесс принятия решений, уровень общественного доверия и психологическое состояние личности. В работе предлагаются эффективные пути противодействия ложной информации посредством развития критического мышления и повышения уровня информационной грамотности.

Ключевые слова: социальные сети, ложная информация, дезинформация, информационная манипуляция, критическое мышление, информационная грамотность, психологическое воздействие.

Abstract. This article examines the impact of false information widely disseminated through social media on public consciousness, as well as the causes and mechanisms underlying its spread. Particular attention is paid to the negative effects of misinformation on individual decision-making, social trust, and psychological well-being. The study proposes effective approaches to combating false information through the development of critical thinking skills and the enhancement of media and information literacy.

Keywords: social media, misinformation, disinformation, information manipulation, critical thinking, media and information literacy, psychological impact.

KIRISH

Jahonda rivojlanayotgan virtual psixologiya va kiberpsixologiya sohalarida o‘smir va boshqa yoshdagi shaxslarning ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan yolg‘on axborotlarni qabul qilishga moyilligi kun sayin ortib borayotgani, mazkur yangi sohalar oldida dolzarb muammolarni keltirib chiqarayotgani kun tartibiga chiqmoqda. Qolaversa, bugungi kunda soxta yangiliklar va dezinformatsiya ham muhim ahamiyat kasb etib, bu - yolg‘on axborotning tarqalishi vahimaga, jamiyat barqarorligining buzilishiga hamda axborot manbalariga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotlarga ko‘ra, “MDH mamlakatlarida turli mavzulardagi eng ko‘p yolg‘on axborotlar (feyk xabarlar) Telegram, Facebook, Instagram, Odnoklassniki va Twitter ijtimoiy tarmoqlarida tarqatiladi. Yolg‘on axborotlarning deyarli yarmi VKontakte (24%) va Odnoklassniki (21%) tarmoqlarida” tarqatiladi. Bundan tashqari, ularning 20 foizi Telegramda, 12 foizi esa ommaviy axborot vositalarida tarqalishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [7].

Xalqaro maydonda ijtimoiy tarmoqlar va yolg‘on axborotlarni qabul qilishga moyillikni tadqiq etish yuzasidan ko‘plab ilg‘or ilmiy markazlar hamda institutlar faoliyat olib bormoqda. O‘smir o‘quvchilarda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan yolg‘on axborotlarning ular ongiga ta’sirini aniqlash, feyk axborotlarni qabul qilishning profilaktikasini tashkil etish, antidezinformatsion ko‘nikmalarni shakllantirish, ijtimoiy tarmoqlarda g‘arazli maqsadlarda tarqatilayotgan yolg‘on ma’lumotlardan saqlanish va ushbu feyk axborotlarga qarshi immunitet hosil qilish bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xususan, axborotning haddan ortiq yuklanishi - qabul qilinayotgan axborot miqdori insonning uni qayta ishlash qobiliyatidan oshib ketganda yuzaga keladigan holat bo‘lib, bu esa stress, xotira va diqqatni jamlash qobiliyatining pasayishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda o‘smirlar har kuni katta hajmdagi ma’lumotlar oqimiga duch kelmoqdalar. Ularning manbalari nafaqat ommaviy axborot vositalari, balki ijtimoiy tarmoqlar, do‘stlar va tanishlarning nashrlari hamda boshqa axborot manbalari hisoblanadi.

O‘smir o‘quvchilarda konstruktiv axborotlar bilan ishlay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, feyk axborotlardan himoyalanishni ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Renee DiResta ko‘plab konferensiyalar, seminarlar va forumlarda o‘z tadqiqotlari hamda ilmiy qarashlari bilan faol ishtirok etadi. U o‘z sohasining yetakchi mutaxassislaridan biri sifatida ijtimoiy tarmoqlardagi yolg‘on

ma’lumotlarga qarshi kurashish va ularning jamiyatga ta’sirini tushuntirish borasida muhim faoliyat olib bormoqda.

Claire Wardle - ijtimoiy tarmoqlarda yolg‘on axborot va dezinformatsiya sohasida ko‘plab tadqiqotlar olib borgan hamda jamoatchilikni xabardor qilishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqqan olimlardan biridir. U, shuningdek, ijtimoiy va raqamli kommunikatsiyalar, axborot tarqatish mexanizmlari hamda jamoatchilik fikrini shakllantirish bo‘yicha keng tajribaga ega.

Claire Wardlening tadqiqot ishlari quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lgan [1; 331354]:

1. Dezinformatsiya va yolg‘on axborot. Wardle ijtimoiy tarmoqlarda yolg‘on ma’lumotlar va dezinformatsiyaning qanday tarqalishini, ularning ijtimoiy hamda siyosiy ta’sirini o‘rganadi. U ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlarning manipulyatsiyasi va jamiyatga ta’sirini tahlil qiladi.
2. Tadqiqotlar va tashkilotlar. U First Draft News tashkilotining asoschilaridan biri bo‘lib, ushbu tashkilot dezinformatsiya va yolg‘on axborotlarga qarshi kurashish uchun resurslar hamda strategiyalar ishlab chiqadi. First Draft News jurnalistlar, tadqiqotchilar va ommaviy axborot vositalariga ko‘mak beruvchi loyiha sifatida ham tanilgan.
3. Ommaviy axborot vositalaridagi ta’siri. Wardle ko‘plab ommaviy axborot vositalarida yolg‘on axborot va dezinformatsiya haqidagi fikrlarini bayon qilgan. Uning ishlari ijtimoiy tarmoqlardagi axborot tarqatish mexanizmlarini hamda insonlarning axborotni qabul qilish jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan.
4. Ta’lim va resurslar. U dezinformatsiyaga qarshi kurashish uchun ta’limiy materiallar va resurslar yaratishda faol ishtirok etadi. Tadqiqotlari va amaliy faoliyati orqali jamoatchilikni xabardor qilish hamda ommaviy axborot vositalaridagi yolg‘on ma’lumotlarni aniqlashga yordam berishni maqsad qiladi [2; 197-281].

Sinan Aral - ijtimoiy tarmoqlardagi axborot tarqatish, dezinformatsiya va raqamli kommunikatsiyalar sohasidagi yetakchi mutaxassislardan biridir. U mazkur yo‘nalishda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borib, ijtimoiy tarmoqlarda axborotning tarqalishi, uning ijtimoiy ta’siri hamda xalqaro munosabatlar kontekstidagi ahamiyatini o‘rganadi.

Sinan Aralning tadqiqot ishlari quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lgan:

1. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatish. Aral ijtimoiy tarmoqlarda axborotning qanday tarqalishini, bu jarayonda algoritmlarning rolini va ularning insonlar fikrini shakllantirishdagi ta’sirini o‘rganadi. Uning tadqiqotlari axborot tarqatish dinamikasini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

2. Dezinformatsiya va yolg‘on axborot. U yolg‘on axborot va dezinformatsiyaning tarqalishi, ularning jamiyatga, siyosatga va iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qiladi. Aral bu borada keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, dezinformatsiyaga qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqadi [3; 25].

3. Raqamli marketing va mijozlar bilan o‘zaro aloqalar. U raqamli marketing, mijozlar bilan o‘zaro aloqalar va ijtimoiy media marketingi bo‘yicha tadqiqotlar olib boradi. Tadqiqotlarida raqamli kommunikatsiyalarning biznes va iqtisodiyotga ta’siri o‘rganiladi.

4. Akademik nashrlar. Sinan Aral ko‘plab ilmiy maqolalar va tadqiqotlar muallifi bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot tarqatish va dezinformatsiya masalalari bo‘yicha o‘z ilmiy g‘oyalarini bayon etadi.

Aral MIT universitetida professor sifatida faoliyat yuritadi hamda ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatish, raqamli marketing va kommunikativ aloqalar bo‘yicha dars beradi. U xalqaro konferensiyalar va seminarlarda ham faol ishtirok etadi.

A.V. Dvorak - yolg‘on axborotlar va dezinformatsiya masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib boruvchi psixolog hamda ilmiy tadqiqotchi. Uning ishlari ko‘proq kognitiv va ijtimoiy psixologiya doirasida olib borilib, insonlarning axborotni qabul qilish jarayonlari hamda yolg‘on ma’lumotlarga munosabatini o‘rganishga qaratilgan.

Dvorak yolg‘on axborotlarning kognitiv va emotsional ta’sirlarini o‘rganadi. U insonlar yolg‘on ma’lumotlarni qanday qabul qilishi va bu ma’lumotlarning ularning xulq-atvoriga qanday ta’sir ko‘rsatishini tadqiq etadi [4; 1036-1040].

Uning tadqiqotlari inson xulq-atvoridagi kognitiv jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan. Jumladan, yolg‘on axborotni qabul qilish, qayta ishlash va unga munosabat bildirish jarayonlari o‘rganiladi. Dvorak, shuningdek, yolg‘on ma’lumotlarning emotsional ta’sirini hamda insonlarning his-tuyg‘ulari orqali yolg‘on axborotga qanday munosabat bildirishini tadqiq qiladi.

Uning ishlari insonlarni yolg‘on axborotlardan himoya qilish va ularni aniqlashga xizmat qiluvchi psixologik strategiyalarni ishlab chiqishga ham qaratilgan. A.V. Dvorak ko‘plab ilmiy maqolalar, tadqiqotlar va taqdimotlarda ishtirok etgan. U o‘z ishlarida yolg‘on axborotlar va ularning ta’sirini tushuntirishda turli metodologik yondashuvlardan foydalanadi.

Porter - yolg‘on axborot va dezinformatsiya sohalarida tadqiqot olib boruvchi ilmiy mutaxassis. Uning ishlari asosan ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va psixologik omillarni o‘rganishga qaratilgan.

Porter ijtimoiy tarmoqlarda yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishi va bu jarayondagi psixologik omillarni tadqiq etadi. U yolg‘on axborotni aniqlash va uning

jamiyatga ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqotlari ommaviy axborot vositalarining axborot tarqatish hamda jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi rolini o‘rganishga qaratilgan. Porter axborot tarqatish mexanizmlarini va ommaviy axborot vositalarining ta’sirini tahlil qiladi [5; 139–157].

Porter yolg‘on axborotlarning psixologik jihatlarini o‘rganadi, jumladan, insonlarning yolg‘on ma’lumotlarga munosabati hamda ushbu munosabatlarning kognitiv va emotsional asoslarini tahlil qiladi. U tadqiqotlarida turli metodologiyalar va statistik tahlil usullaridan foydalanadi. Porterning ishlari ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatish jarayonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, u ijtimoiy va raqamli kommunikatsiyalar sohasida ta’lim hamda jamoatchilikni xabardor qilishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishga intiladi.

Weedon yolg‘on axborotning tarqalishi, uning ijtimoiy ta’siri va axborotning qabul qilinishi bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etadi. U insonlarning yolg‘on ma’lumotlarga bo‘lgan munosabatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotlari ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatish mexanizmlarini, ularning qanday ishlashini va insonlarning bu jarayondagi o‘rnini o‘rganishga qaratilgan [6; 13].

Weedon yolg‘on axborotlarning psixologik jihatlarini ham tadqiq etib, insonlar yolg‘on ma’lumotlarni qanday qabul qilishi va bu jarayonda kognitiv hamda emotsional omillar qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. U ommaviy axborot vositalarining axborot tarqatishdagi roli va jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotlarida statistik tahlil va psixologik eksperimentlar kabi turli metodologiyalardan foydalanadi.

Nuland yolg‘on ma’lumotlar, ularning tarqalishi va jamiyatdagi ta’sirini o‘rganadi. U yolg‘on axborotlarning qanday tarqatilishini hamda insonlarning ushbu ma’lumotlarga qanday munosabat bildirishini tadqiq qiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqalishining dinamikasi va insonlarning bu jarayondagi ishtirokini o‘rganadi. Nuland ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmlar va platformalarning roli haqida ham ilmiy qarashlarini ilgari suradi.

Uning tadqiqotlari yolg‘on axborotlarning psixologik omillarini o‘rganishga, shuningdek, insonlarning yolg‘on ma’lumotlarni qanday qabul qilishi va ularga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilishga qaratilgan. Nuland ommaviy axborot vositalarining axborot tarqatish hamda jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi rolini ham o‘rganadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Addiksiya va virtual olamga qaramlikni aniqlash so‘rovnomasi ko‘rsatkichlari (Mann-Uitnining U-mezoni bo‘yicha)

Shaxs xususiyatlari	Guruhlar		U	p
	O‘smir yigitlar N=190	O‘smir qizlar N=205		
Kiberaxborotlarga umumiy qaramlik	118,7	134,1	9277,0	0,08
Internet va kompyuterga qaramlik	145,4	124,2	9340,0	0,004*
Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik	131,5	122,9	9265,0	0,09
Televizorga qaramlik	114,5	120,5	9110,0	0,12
Kompyuter o‘yinlariga qaramlik	137,6	125,6	9254,0	0,10
Internetga qaramlik	128,7	134,5	9156,0	0,09
Sog‘lom turmush tarziga amal qilmaslik	114,2	139,7	9182,0	0,006*

Izoh: * - $p \leq 0,05$; ** - $p \leq 0,01$; *** - $p \leq 0,001$.

O‘smir o‘quvchilarda feyk axborotlarni qabul qilishga moyillik shakllanishining psixologik xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillarning yuqorida keltirilgan so‘rovnomalar bo‘yicha o‘zaro bog‘liqlik darajasi noparametrik mezon asosida tahlil qilindi. Mann-Uitni kriteriyasi bo‘yicha o‘smir yigitlar va o‘smir qizlarning natijalari birinchi shkala - kiberaxborotlarga umumiy qaramlik bo‘yicha mos ravishda 118,7 va 134,1 ko‘rsatkichlar bilan tavsiflangan. Ushbu ikki guruh o‘rtasidagi farq p=0,08 ni tashkil etgan.

Keyingi shkala - internet va kompyuterga qaramlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar 145,4 va 124,2 ni namoyon qilgan. O‘rtacha farq esa p=0,004* ni tashkil etib, statistik jihatdan ahamiyatli birlikni ko‘rsatgan.

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar 131,5 va 122,9 ni tashkil etgan, o‘rtacha farq esa p=0,09 bo‘lib, o‘rtachadan pastroq ahamiyatni namoyon etgan. Televizorga qaramlik shkalasi esa 114,5 va 120,5 ko‘rsatkichlar bilan tavsiflangan. Ikki guruh o‘rtasidagi ahamiyatlilik darajasi p=0,12 natijalar bilan xarakterlangan.

Keyingi shkala - kompyuter o‘yinlariga qaramlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar 137,6 va 125,6 ni tashkil etgan. Ushbu ikki guruh o‘rtasidagi farq p=0,10 ga teng bo‘lgan. Internetga qaramlik shkalasi sinaluvchilarda 128,7 va 134,5 ko‘rsatkichlar

bilan tavsiflangan. Ikki guruh o‘rtasidagi ahamiyatlilik darajasi p=0,09 natijalar bilan xarakterlangan.

So‘nggi shkala - sog‘lom turmush tarziga amal qilmaslik bo‘yicha ko‘rsatkichlar 114,2 va 139,7 ni tashkil etgan. Ikki guruh o‘rtasidagi ahamiyatli farq p=0,006* natijalar bilan tavsiflangan.

Ushbu tahlil asosida aniqlanishicha, o‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlardagi yolg‘on axborotlarni qabul qilishi ularning internet va virtual kommunikatsiyaga qaramlik darajasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jarayon natijasida o‘smirlar axborotlarni filtrsiz qabul qilishi, emotsional intellektning pastligi hamda “jamoaviy individuallik”ning destruktiv rakursda kuchayishi kabi holatlar shakllanadi.

O‘smirlarda ijtimoiy tarmoqlarga tobelik (addiktsiya) zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan muammo bo‘lib, u jiddiy psixologik va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. O‘smirlik davri ijtimoiy munosabatlar va tengdoshlar orasida maqom qozonish bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy tarmoqlar ushbu ehtiyojni qondirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular tengdoshlari bilan doimiy aloqada bo‘lish, izohlar, “like”lar va obunachilar orqali o‘z maqomini belgilash imkoniyatini yaratadi. O‘smirlar doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqdagi faoliyatlari orqali o‘zlarini tasdiqlashga harakat qiladilar va bu holat tobelikka olib kelishi mumkin.

O‘smirlar o‘zlarini namoyon etish va boshqalar tomonidan qabul qilinishni istaydilar. Ijtimoiy tarmoqlar ularga o‘zlarini ifoda etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, fotosuratlar, videolar, hikoyalar va postlar orqali ular o‘z fikr va qarashlarini namoyish etadilar. Ushbu platformalarda faol bo‘lish orqali o‘smirlar o‘z qadr-qimmatini boshqalarning bahosiga bog‘lab qo‘yadilar, bu esa ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni kuchaytiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish, ayniqsa, “like”lar va izohlar olish dopamin ajralishiga sabab bo‘ladi. Dopamin - miyadagi mukofot tizimini faollashtiradigan va zavq hissini yuzaga keltiradigan kimyoviy modda hisoblanadi. O‘smirlar ushbu hissiy qoniqishni qayta-qayta his qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarga takroran murojaat qiladilar va natijada ularda tobelik shakllanadi.

XULOSA

Ijtimoiy tarmoqlarda yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishi murakkab psixologik va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u inson ehtiyojlari, hissiyotlari, ijtimoiy guruh mexanizmlari, algoritmlar hamda jamiyat tuzilishi orqali mustahkamlanadi. Ushbu fenomenni samarali bartaraf etish uchun nafaqat texnologik, balki psixologik, ijtimoiy va pedagogik strategiyalarni ham uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Carley, K. M. A theory of group stability / K. M. Carley // American Sociological Review. - 1991. - Vol. 56. - P. 331-354.

2. Cummings, J. N. Structural properties of work groups and their consequences for performance / J. N. Cummings, R. Cross // Social Networks. - 2003. - Vol. 25. - P. 197-281.

3. Howell, L. Digital Wildfires in a Hyperconnected World / L. Howell // World Economic Forum Report 2013. - Geneva : World Economic Forum, 2013. - 25 p.

4. Kosinski, M. Computer-based personality judgments are more accurate than those made by humans [Electronic resource] / M. Kosinski, W. Youyou, D. Stillwell // Proceedings of the National Academy of Sciences. - 2015. - Vol. 112, No. 4. - P. 1036-1040.

5. Malbon, J. Taking Fake Online Consumer Reviews Seriously [Electronic resource] / J. Malbon // Journal of Consumer Policy. - 2013. - Vol. 36, No. 2. - P. 139-157.

6. Weedon, J. Information Operations and Facebook [Electronic resource] / J. Weedon, W. Nuland, A. Stamos. - Version 1.0. - 2017. - 13 p.

7. ТАСС. В России назвали основные каналы распространения фейков [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://tass.ru/obschestvo/16642301 (дата обращения: 13.06.2026).

O‘SMIR SUZUVCHILARDAGI ICHKI NIZOLAR VA ULARNING SPORT FAOLIYATIGI TA’SIRI

Mavlanov Donyor Ergash o‘g‘li
Alfraganus university psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0000-5171-2057

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smir yoshidagi suzuvchilarda shaxs ichki nizolarining namoyon bo‘lish bosqichlari, ularning darajalari hamda sport faoliyatiga ta’sirining psixologik jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, shaxs ichki nizolarini bartaraf etishning nazariy yondashuvlari yoritilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs ichki nizolari, suzuvchilar, o‘smirlik yoshi, sport faoliyati, psixologik moslashuv, bahs-munozara, boshlang‘ich tayyorgarlik guruhi (BTG), o‘quv-mashg‘ulot guruhi (O‘MG).

Аннотatsiя. В данной статье рассматриваются этапы проявления внутриличностных конфликтов у пловцов подросткового возраста, их уровни и психологические аспекты влияния на спортивную деятельность. Также освещаются теоретические подходы к преодолению внутриличностных конфликтов и предлагаются практические рекомендatsii по их предупреждению и коррекции.

Ключевые слова: внутриличностные конфликты, пловцы, подростковый возраст, спортивная деятельность, психологическая адаптatsiя, дискуссия, группа начальной подготовки (ГНП), учебно-тренировочная группа (УТГ).

Annotation. This article examines the stages of manifestation of intrapersonal conflicts among adolescent swimmers, their levels, and the psychological aspects of their impact on sports performance. In addition, theoretical approaches to overcoming intrapersonal conflicts are discussed, and practical recommendations for their prevention and correction are presented.

Keywords: intrapersonal conflicts, swimmers, adolescence, sports activity, psychological adaptation, discussion, initial training group (ITG), educational and training group (ETG).

KIRISH

Jahonda sport turlarini ommalashtirish va uni rivojlantirish dunyo mamlakatlarida sport siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, jahonda bolalar va o‘smirlar sportini rivojlantirish, yoshlarni

sportga keng jalb etish, ularda sport ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, sportchilarning sport faoliyatida yuzaga keladigan ichki nizolarni psixologik jihatdan tahlil qilish, musobaqa va musobaqaoldi mashg‘ulotlari jarayonida ichki nizolarning ta’sirini aniqlash, sport faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishda negativ psixoemotsional holatlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, sport mashg‘ulotlarini tashkil etishda ichki psixologik muhitni barqarorlashtirish yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sport sohasini rivojlantirish, uning faoliyati samaradorligini oshirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib, zarur huquqiy-me’yoriy asoslar yaratildi. Jumladan, “...jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash” ustuvor vazifa etib belgilanib, Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: «Biz xalqaro sport maydonlarida O‘zbekistonning nufuzi va obro‘-e’tiborini oshirishga katta hissa qo‘shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e’tibor berishimiz kerak». Ushbu fikrlar sportni har bir yo‘nalishda rivojlantirish lozimligini anglatadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Nizolar har doim murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy hodisadir. Nizoli holatlar ko‘p jihatlarda namoyon bo‘ladi: muayyan maqsad va manfaatlar bilan birlashgan shaxslar, ijtimoiy guruhlar, milliy-etnik jamoalar, davlatlar va mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarda. Nizolar turli sabablar va motivlarga ko‘ra yuzaga keladi. Psixologik, iqtisodiy, siyosiy, qadriyatlarga oid, diniy va boshqa omillar nizoli holatlarning asosiy sabablarini tashkil etadi. Har bir shaxsning ichki dunyosida ham ma’lum ma’noda qarama-qarshiliklar va nizolar uchraydi.

Shaxs ichki nizolari ikki yoki undan ortiq tomonlarning o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi. Ularning barchasi ijtimoiy jihatdan shartlangan bo‘lsa-da, tabiatan individual xarakterga ega bo‘lib, ma’lum bir ijtimoiy munosabatlar tizimida aks etadi.

Shaxsning o‘ziga aloqador bo‘lgan ichki nizolari - bir inson qalbidagi turli his-kechinmalar, istak-xohishlar va motivlarning bir-biriga zid kelishi, qarama-qarshi fikrlarning paydo bo‘lishi oqibatida yuzaga keladi. Bunday nizolar ko‘pincha shaxsgagina ma’lum bo‘ladi, ba’zan esa insonning qilgan xatti-harakatlari aynan uning ichki nizolari oqibatida yuzaga keladi.

V.S. Merlinning [4] fikricha, shaxs ichki nizolari shaxsning qarama-qarshi yo‘nalishlari, munosabatlari va harakatlari asosida namoyon bo‘ladigan shaxsiy parchalanish natijasi sifatida qaraladi.

Z. Freydning aytishicha, nizo holatidagi shaxs istaklar to‘qnashuvini boshidan kechiradi va natijada shaxsning bir qismi ma’lum istaklarni himoya qilsa, ikkinchi qismi ularni rad etadi. Natijada shaxsning ichki holatida ma’lum ma’noda noqulayliklar, ichki nizolar va doimiy qarama-qarshiliklar kuzatiladi. Shaxsda “Id”, “Ego” va “Super-Ego” o‘rtasida doimiy tortishuv mavjud bo‘lib, bu ongsiz impulslar va reaksiyalar orqali namoyon bo‘ladi [3].

Y.B. Fantalovaning [2] fikricha, shaxs ichki nizolarining chuqurligi hayot sohalari ierarxiyasi o‘rtasidagi tafovutlarning kattaligi bilan belgilanadi. Agar hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan turli mezonlarga ko‘ra imtiyozlar soni o‘rtasidagi tafovut sezilarli bo‘lsa, u holda turli darajadagi aniq ichki nizolar kvalifikatsiya qilinadi.

F.E. Gaziyeva [5] sportda guruhiy jipslikning shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to‘g‘risida to‘xtalib, futbol jamoasining ijtimoiy va faoliyat jipsligini muayyan mezonlar asosida o‘lchash, ularga ta’sir etuvchi umumiy korrelyatlarni aniqlash, jamoa a’zolarini ijtimoiy jihatdan yaqinlashtirish hamda jamoa jipsligini ta’minlashga qaratilgan mexanizmlar haqida batafsil ma’lumotlar bergan.

Tadqiqotchi G.Z. Tojiboyeva tomonidan maktab psixologining nizoli vaziyatlardagi psixokorreksion faoliyati xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘smirlar o‘rtasidagi shaxslararo nizolar o‘quvchilar va o‘quv guruhlariga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Shu munosabat bilan maktab psixologlarining o‘smirlar o‘rtasidagi shaxslararo nizolar sharoitidagi faoliyati shaxslararo nizolarning shaxs rivojiga xizmat qiluvchi salohiyatini maksimal darajada amalga oshirishga va uning salbiy oqibatlari yuzaga kelish ehtimolini kamaytirishga yo‘naltirilishi kerakligi haqida xulosa qilingan.

Nizolar har qanday sog‘lom jamiyatda kuzatilishi mumkin bo‘lgan muqarrar holat bo‘lib, ular hayotiy munosabatlarning ajralmas qismidir. Shu kungacha sport sohasida olib borilgan tadqiqotlarda nizolar asosan sportchi va trener, sportchi va sportchi o‘rtasidagi munosabatlar doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, biz aynan o‘smir sportchilarning shaxs ichki nizolari bilan bog‘liq jihatlarni o‘rganishni maqsad qilganmiz.

Biz o‘smir suzuvchilarda shaxsiy ichki nizolarni kamaytirish orqali ularda g‘alabaga nisbatan ichki motivlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlashni maqsad qilib oldik. Tadqiqot jarayoniga suzish sporti bilan shug‘ullanayotgan Mirzo Ulug‘bek tumani 2-son sport maktabidan 64 nafar, Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazidan 76 nafar, Yangihayot tumani sport maktabidan 67 nafar, jami 207 nafar o‘quv-mashg‘ulot

guruhi (O‘MG) va boshlang‘ich tayyorgarlik guruhi (BTG) suzuvchilari respondent sifatida jalb etildi.

Tadqiqotda shaxsiy nizolarning o‘smir suzuvchilar sport faoliyatiga psixologik ta’sirini o‘rganish maqsadida ilmiy ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda K. Tomasning «Nizoli xulq-atvorni aniqlash» metodikasi hamda D.M. Ramendikning «Shaxsning nizolashuvchanlik darajasini aniqlash» metodikalaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sportchilar turlari kesimida D.M. Ramendikning «Shaxsning nizolashuvchanlik darajasini aniqlash» metodikasi va K.N. Tomasning «Nizoli vaziyatlarni o‘rganish» testi natijalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik Pirson korrelyatsiya mezoni (N = 207) asosida tahlil qilinib, aloqadorlik darajalari aniqlandi.

Nizoli xulq-atvor shakllari	**Shaxslararo nizolashuvchanlik darajasi**	
	Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhi (BTG)	O‘quv mashg‘ulot guruhi (O‘MG)
Bahs-munozara	0,071	0,388*
Hamkorlik	-0,163	0,087
Kelishuv	-0,232	-0,008
O‘zini chetga olish	0,562**	-0,064
Moslashuv	0,028	0,020

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01

Keltirilgan jadvalga ko‘ra, shaxslararo nizolarning rivojlanishida nizoli xulq-atvor shakllarining ta’siri o‘smir suzuvchilarning sport faoliyatida o‘z aksini topdi. Nizoli xulq-atvor shakllaridan «bahs-munozara» (r=0,526; p≤0,01), «kelishuv» (r=0,182; p≤0,05) omillari bilan ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik qayd etildi.

Shaxsda bahs-munozara omilining ta’siri natijasida (r=0,526; p≤0,01) o‘smir suzuvchilar faoliyatida shaxslararo nizolarning kelib chiqishi va rivojlanishidagi ta’siri beqiyos bo‘lib, u orqali o‘smir suzuvchilarning sport faoliyatidagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir etibgina qolmasdan, balki me’yoridan ortiq bo‘lgan bahs-munozara ta’sirida o‘smirlar o‘z faoliyatidan qoniqmaslik hissini namoyon qilib, shaxs va shaxslararo munosabatlar tizimida ham munosabatlarning buzilishiga sabab bo‘ladi.

O‘smir suzuvchilarda shaxslararo nizolar o‘quv-mashg‘ulot guruhi (O‘MG)da nizoli xulq-atvor shakllaridan «bahs-munozara» omili bilan (r=0,388; p≤0,05) ijobiy aloqadorlik qayd etdi. Shaxslararo nizolar bo‘yicha boshlang‘ich

tayyorgarlik guruhidagi (BTG) suzuvchilar esa «o‘zini chetga olish» omili bilan (r=0,562; p≤0,01) ijobiy aloqadorlik qayd etdi.

O‘quv-mashg‘ulot guruhidagi (O‘MG) o‘smir suzuvchilarda sport faoliyati bilan bog‘liq jihatlarda kuzatilishi mumkin bo‘lgan nizoli, bahs-munozarali holatlar ularda shaxslararo nizolarni keltirib chiqaradi. Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi (BTG) sportchilarda esa hali sport faoliyatiga nisbatan mustahkam motivlar va qiziqishlarning shakllanmaganligi sababli bahs-munozarali holatlar nisbatan kam uchraydi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi suzuvchilarda «o‘zini chetga olish» omili shaxslararo nizolar bilan ijobiy korrelyatsion aloqadorlik qayd etdi. Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi suzuvchilar yangi jamoa va sport faoliyatiga moslashuv kabi jihatlarda o‘zini namoyon qilish sifatlari bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulot guruhidagi suzuvchilarga qaraganda ko‘proq izolyatsiyalangan bo‘lib, ularning bu jihatlari ma’lum ma’noda shaxslararo nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Suzuvchilarning shaxsiy nizolarini aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadida psixokorreksion model ishlab chiqilgan. Model o‘zaro bog‘langan bloklarni (maqsadli, nazariy-uslubiy, diagnostik va mazmun-protsessual) o‘z ichiga oladi. O‘smir suzuvchilarning sport va hayotiy faoliyatlarida shaxs ichki nizolarining rivojlanishga bo‘lgan ta’sirlari keltirilgan bo‘lib, ular quyidagilarda o‘z aksini topgan:

1. Modelning maqsadli bloki o‘smir yoshidagi suzuvchilarning shaxsiy rivojlanish jarayonida shaxs ichki nizolarini aniqlash va uning mohiyatini anglashga yordam beradi;

2. Nazariy-uslubiy blok insonning shaxsiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omil sifatida ichki nizolarning paydo bo‘lishini asoslaydigan ilmiy yondashuvlar (faoliyatga asoslangan, madaniy-tarixiy, subyektiv, gumanistik, psixodinamik, geshtalt terapiya, ekzistensial yondashuv) bilan ifodalanadi. Amaldagi yondashuvlar shaxs ichki nizolarini aniqlash va hal qilish vositasi sifatida ichki nizolarni tan olish usulini yaratishga olib kelgan. Nazariy yondashuvlarning asosiy uslubiy jihatlari shaxsning ichki nizolarini aniqlash va tushuntirishga yordam beradi;

3. Diagnostik blok shaxsiy rivojlanishning aniqlangan komponentlari doirasida subyektlarning shaxsiy rivojlanishini kuzatishni o‘z ichiga oladi. Shaxs rivojlanishining nazariy jihatlarini ilmiy asoslash uning tarkibiy qismlarini o‘rganish imkonini beradi. Dissertatsiya ishimizda shaxs ichki nizolarini bartaraf etishga qaratilgan psixokorreksion model uchta komponentdan iborat bo‘lib, refleksiv, ijtimoiy va xulq-atvor jihatlariga ta’sir qiladi.

Shakllantiruvchi eksperiment ta’sirida D.M.Ramendikning «Shaxslararo nizolashuvchanlik darajasi» metodikasining sportchilar turlari kesimida namoyon bo‘lishi

(Styudent t-mezoni bo‘yicha)

Sinaluvchilar guruhi	Sportchilar turlari	Shaxslararo nizolashuvchanlik darajasi		t (Styudent mezoni qiymati)
		Oldingi natijalar	Keyingi natijalar	
Tajriba guruhi (41 nafar)	BTG (n=21)	22,77	18,65	2,849*
	O‘MG (n=20)	23,71	19,82	4,827**
Nazorat guruhi (42 nafar)	BTG (n=21)	19,88	20,44	-1,420
	O‘MG (n=21)	14,55	16,22	-1,000

Qayta o‘tkazilgan diagnostika natijalariga ko‘ra, tajriba guruhi respondentlarida (BTG) shaxslararo nizolashuvchanlik darajasi bo‘yicha treningdan oldingi va treningdan keyingi natijalar orasida t=2,849, p≤0,05 ahamiyatli tafovutlar qayd etildi. Mazkur o‘zgarishlarga quyidagicha izoh berishimiz mumkin: olib borilgan trening mashg‘ulotlari shaxslararo nizolashuvchanlik darajasi yuqori bo‘lgan o‘smir suzuvchilarda ijobiy natijalarning yuzaga kelishiga asos bo‘lib, shaxs nizolarining suzuvchilarning sport faoliyati bilan bevosita bog‘liqligi o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Tajriba guruhidagi respondentlar (O‘MG) bilan olib borilgan trening mashg‘ulotlarining oldingi va keyingi natijalari orasida ham t=4,827, p≤0,01 darajasida sezilarli ijobiy tafovutlar qayd etildi. Olingan natijalarga ko‘ra, o‘tkazilgan trening mashg‘ulotlarining samarasi nafaqat ularning sport sohasidagi muvaffaqiyatlariga, balki o‘smir suzuvchilarda shaxs va shaxslararo munosabatlarda ijobiy muhitning shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, sportchi-sportchi va sportchi–trener o‘rtasidagi munosabatlarda ham ijobiy natijalar qayd etilishiga sabab bo‘ldi.

Trening mashg‘ulotlarigacha bo‘lgan davrda o‘smir suzuvchilarda o‘z faoliyatidan qoniqmaslik, doimiy ravishda o‘zini tanqid qilish, musobaqalardagi muvaffaqiyatsiz natijalardan uzoq muddat tiklana olmaslik, ko‘ngilsiz hodisalardan tez-tez tashvishga tushish holatlari kuzatilgan. Treningdan keyingi natijalarda esa ularda bunday salbiy emotsional holatlarga nisbatan chidamlilik, maqsadlari yo‘lida yuzaga keladigan to‘siqlarga nisbatan barqarorlik hamda sport faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan ichki motivlarning rivojlanganligi aniqlandi.

XULOSA

Qayta amalga oshirilgan diagnostika natijalariga tayanib, shunday xulosa qilish mumkinki, o‘smir suzuvchilarda yuqori darajadagi shaxslararo nizolashuvchanlikni bartaraf etish, shuningdek, ularning emotsional va kognitiv sohalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus psixologik trening mashg‘ulotlarini olib borish orqali shaxs ichki nizolarining sport faoliyatiga bo‘lgan salbiy ta’sirini kamaytirish hamda o‘smir suzuvchilarda o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini qaror toptirishni ta’minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-4947-sonli Farmoni. - URL: https://lex.uz
2. Берн Э. Трансакционный анализ и психотерапия / Э. Берн ; пер. с англ. - СПб. : Издателство «Братство», 1992. - 224 с.
3. Фанталова Е.Б. Диагностика и психотерапия внутреннего конфликта / Е.Б. Фанталова. - Самара ; М., 2001.
4. Фрейд А. Психология «Я» и защитные механизмы / А. Фрейд ; пер. с англ. - М. : Педагогика-Пресс, 2003. - 264 с.
5. Мерлин В.С. Психология индивидуалности : избранные психологические труды / В.С. Мерлин. - М. : Издателство Московского психолого-социалного института ; Воронеж : Изд-во НПО «МОДЭК», 2009. - 544 с.
6. Газиева Ф.Э. Спортда гуруҳий жипслик шаклланиши ва ривожланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари : психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертатsiя автореферати / Ф.Э. Газиева. - Тошкент, 2019. - 55 бет.
7. Maxmudov A.M., Mavlonov D.E.O‘. Rahbar boshqaruv faoliyatining professionalizmi // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). - 2021. - T. 1. - № 3. - B. 193199.
8. Мавлонов Д.Э. Психологические основы возникновения и разрешения конфликтов в спорте (на примере подростков).
9. Saitxodjaev Z., Mavlanov D., Xaydarov F. Sportchi talabalar ijodiy faoliyatiga ta’sir etuvchi psixologik omillar diagnostikasi // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – № 11. – B. 489–494.
10. Mavlanov Donyor Ergash o‘g‘li, Nazarov Rustam Nurali o‘g‘li. Internal Conflicts of Personality and the State of Their Study in Science // FarDU ilmiy xabarlari. – 2024. – T. 29. – № 6. – Б. 61–61.

YOSHLARNI NIKOH YOSHI HAQIDAGI ADEKVAT TASAVVURLARI OTA-ONA OILASIDAGI MA'NAVIY MUHITNING BARQARORLIGIGA MOSLIGINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEZONLARI

Abdullayeva Aropatxon Rustamovna
Farg'ona davlat universiteti
psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy qadriyatlarning mohiyati va ahamiyati yoritilgan. Oilaviy qadriyatlar har bir oilaga xos bo'lgan, oila uchun ustuvor hayotiy maqsadlarni belgilovchi, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hamda oilaning hayot faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi g'oyalar majmui sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, oilaviy qadriyatlar insonning biologik, axloqiy va psixologik fazilatlarini uyg'unlashtiruvchi hamda axloqiy tarbiyaning muhim asosi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: oila, qadriyat, omil, jamiyat, urf-odat, taraqqiyot, milliy qadriyatlar, biologik omillar, ijtimoiy muhit, psixologik xususiyatlar.

Аннотация. В данной статье раскрываются сущность и значение семейных ценностей. Семейные ценности рассматриваются как совокупность идей и принципов, характерных для каждой семьи, определяющих её приоритетные жизненные цели, регулирующих взаимоотношения между членами семьи и оказывающих влияние на её жизнедеятельность. Обосновывается, что семейные ценности объединяют биологические, нравственные и психологические качества личности и выступают важной основой нравственного воспитания.

Ключевые слова: семья, ценность, фактор, общество, традиции, развитие, национальные ценности, биологические факторы, социальная среда, психологические особенности.

Abstract. This article explores the essence and significance of family values. Family values are defined as a set of ideas and principles inherent in each family that determine its priority life goals, regulate relationships among family members, and influence family life. The study highlights that family values integrate biological, moral, and psychological qualities of an individual and serve as an essential foundation of moral education and personal development.

Keywords: family, value, factor, society, tradition, development, national values, biological factors, social environment, psychological characteristics.

KIRISH

O‘zbekistonda oilani rivojlantirish masalasiga global darajada, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish doirasida alohida e’tibor qaratilgan.

